



UDK:37.032

Gulayim KALIQNAZAROVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: gulayim-2025@gmail.com

PhD E.Suletbayeva taqrizi asosida

THE ROLE AND IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL ANALYSIS IN THE DEVELOPMENT OF INTELLECT ACCORDING TO A PERSON'S AGE

Annotation

This article discusses the role and importance of psychological analysis in a person's age-appropriate development and analyzes the psychological experiments conducted in accordance with the scientific views of several foreign scientists.

Key words: Intellect, dynamics, typological variant, behavior, human, intellectual, automatism, age periods, psychologist, psychological analysis, pedagogue, dispersion, methodological, mental development, individual creative activity.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В РАЗВИТИИ ИНТЕЛЛЕКТА, СООТВЕТСТВУЮЩЕГО ВОЗРАСТНЫМ ПЕРИОДАМ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В данной статье рассматривается роль и значение психологического анализа в развитии человека в соответствии с возрастными периодами, и анализируются психологические эксперименты, проведенные рядом зарубежных ученых в соответствии с их научными взглядами.

Ключевые слова: Интеллект, динамика, типологический вариант, поведение, человек, интеллектуальный, автоматизм, возрастные периоды, психолог, психологический анализ, педагог, рассеянность, методологический, умственное развитие, индивидуальная творческая деятельность.

INSONNING YOSH DAVRLARIGA MOS INTELEKTNING RIVOJLANISHIDA PSIXOLOGIK TAHLILLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada insonning yosh davrlariga mos rivojlanishida psixologik tahlillarning o'rni va ahamiyati hususida so'z yuritilib, qator xorijiy olimlarning ilmiy fikrlariga monand, olib borgan psixologik tajribalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Intellect, dinamika, tipologik variant, xulq-atvor, inson, intellektual, avtomatizm, yosh davrlari, psixolog, psixologik tahlil, pedagog, tarqoqlik, metodologik, aqliy rivojlanish, individual ijodiy faoliyat.

Kirish. Yangi sharoitga moslashish va hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan holda xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantiruvchi harakatlarida yangi variantlarini ishlab chiqish kabi intellektual mexanizmlar har bir insonda mavjud hususiyatlaridan hisoblanadi. Ammo atrofidagilarga hech qanday aloqasi bo'lmagan vaziyatlarda, inson intellektining namoyon bo'lishi boshqalar tomonidan qabul qilinmasligi yoki butunlay inkor etilishi mumkin. Xulq-atvorning intellektual jihatdan yangi variantlarini ishlab chiqilishi avtomatizmlar yordamida ya'ni ijodiy izlanish ko'nikmalari asosida sodir bo'ladi. Shuning uchun ham miya faoliyati yangi sharoitlarga moslashib rivojlanib, qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldiriladi. Intellektual faoliyatning natijasi o'laroq yangi sharoitlarda yangi xulq-atvor avtomatizmlari ifodalanadi, uning hisobiga intellektual ijodiy qobiliyatning hayotiy tajribasi ham kengayib boradi.

Mazkur jarayonni nazorat qilish va yoshlarning intellektual faoliyatini kengaytirishning samarali metodlarini ishlab chiqishda psixolog va pedagoglarning roli va ahamiyati yuqori hisoblanadi. Sababi, III-renesans davriga mos yoshlarni tarbiyalash, ularning ham ma'naviy, ham aqliy faoliyat imkoniyatlarini kengaytirish masalalari bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Chunki Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev aytib o'tganlaridek «Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq

birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir» [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson hayoti davomida uning aqlan, ya'ni intellekt tuzilishi jihati va miqdor ko'rsatkichlari jihatidan ma'lum darajada o'zgarib turadi. Mazkur o'zgarishlar shaxsning yoshi, jinsi, individual-psixologik xususiyatlari, shuningdek, ijtimoiy shart-sharoitlar, jumladan, ta'lim-tarbiyaga bog'liqlikda notekis va turli ritmda sodir bo'ladi. "Ko'pchilik tadqiqotchilar, deydi V. N. Drujinin o'z asarlarida, -hayotning dastlabki 20 yilida insonning asosiy intellektual rivojlanishi sodir bo'ladi, bunda intellekt 2 yoshdan 12 yoshgacha eng jadal o'zgaradi" degan fikrni bildiradi.

Barchaga ma'lum insonning aqliy rivojlanishi – bu omillar tizimi bilan belgilanadigan ko'p darajali jarayon hisoblanadi. Ular orasida miyaning tabiiy biologik yetilishi va ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy ta'siri kabi dialektik jihatdan eng asosiy o'zaro bog'liq mavjud. Bunda birinchi omil aqliy va psixologik rivojlanishning zaruriy sharti bo'lsa, miya tuzilmalari yetarli darajada tabaqalashtirilmasa u holda voqeaning u yoki bu hodisasini murakkab strukturali aks ettirishga erishish juda muammoli bo'ladi. Miya tuzilmalari o'z-o'zidan aqliy yetuklik imkoniyatlarning o'sishini ta'minlay olmaydi. Bu esa metodik jihatdan ijobiy o'qitishning yosh xususiyatlariga mos kelishini talab qiladi. Shuningdek, ta'lim rivojlanishdan ilgari bo'lishi lozim. Ana o'shanda pedagogik

ta'sirlar aqliy faoliyatning oldindan shakllangan jarayonlari hisoblangan ko'nikma, malaka, usullar kabi yetilgan funksiyalarga emas, balki ma'lum bir yoshda endigina shakllanib borayotgan funksiyalarga qaratiladi. YA'ni, L. S. Vigotskiy ta'kidlaganidek: o'rganish aqliy rivojlanishning ichki zarur harakatlaniruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladi, bu jarayonning eng yaqin zonasini yaratadi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Aslida maktab va oliy ta'lim muassasalarida ta'limning muvaffaqiyatli jihatlari shaxsning hissiy, irodaviy, motivatsion va boshqa sohalarining birgalikda rivojlanganligi bilan bog'liq hisoblanadi. Bu yerda ikki tomonlama yondashuv mavjud bo'lib bir tomondan, ta'lim samaradorligiga o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi, ikkinchi tomondan past o'zlashtirish shakllanib borayotgan shaxsning salbiy xususiyatlarini sezilarli darajada ta'kidlashi va o'quv faoliyatini o'z-o'zini boshqarishning motivatsion va irodaviy tarkibiy qismlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir. Bu yerda shakllanuvchi hususiyatlar, mas'uliyatlilik, intizomlilik, qat'iyatlilik va boshqalar hisoblanadi. Maktab yillarida esa o'qish asosiy faoliyat turi bo'lganligi tufayli, shakllanayotgan shaxsning o'z-o'zini baholashi, o'z kuchiga ishonishi va hayot faoliyati uslubini tanlashida sezilarli ta'sirchanligini ko'rsatadi.

"O'quv jarayonida o'quvchining bilish faoliyatini amalga oshirish darajasiga qo'yiladigan talablar uning haqiqiy rivojlanish darajasiga mos kelmaganda, o'qishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga keladi"-deydi N. P. Lokalova [3]. Bunda, o'quvchilarning aqliy rivojlanishi va o'quv dasturining murakkablik darajasi o'rtasidagi bog'liqliklarni belgilash ta'limni tabaqalashtirish va individuallashtirishning adekvat variantlarini izlashda boshlang'ich nuqta bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Ammo, psixologiya fanining bugungi kungacha to'plagan ma'lumotlari, faqat har bir yoshdagi aqliy rivojlanishning umummevoriy mezonlarini ochib beradi va pedagogik amaliyot talablariga to'liq javob bermaydi. Sababi, o'qituvchi o'rtacha yosh meyorini tashuvchi mavhumlik sir-sinoatlari bilan emas, individual rivojlanish sur'atlariga ega bo'lgan, shaxslar bilan ish olib borishi kerak. Chunki ta'lim-tarbiya oluvchilarga adekvat talablar qo'yish uchun pedagog intellektual qobiliyatlarni shakllantirishning individual xususiyatlari haqidagi tasavvurlarga ega bo'lishi lozim.

Bugungi kunda jahon olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda e'tirof etilganidek, o'quvchilarning ayrimlarida intellektual rivojlanishning jadallashuvi ertaroq, boshqalarida esa kechroq sodir bo'ladi ekan [4]. Bu esa o'z navbatida pedagogik amaliyot uchun muhim jarayon hisoblanib, bir sinfda o'qiydigan bir xil yoshdagi o'quvchilarning miya tuzilmalarining yetuklik darajasi sezilarli darajada farq qilishi mumkin degan fikrni paydo qiladi va rivojlanishdan oldingi ta'limda kognitiv funksiyalar o'rtasidagi farq bir xil bo'lmasdan, balki, ta'limning muvaffaqiyatli samaradorligiga va uning natijalariga ham ta'sir qiladi.

Bu bo'yicha qator olimlarning mulohazalari mavjud, jumladan professor N. S. Leytes "O'rta sinflarda, o'quvchilar tez yoshga oid rivojlanish bosqichiga kirganlarida, yosh xususiyatlari bo'yicha "tarqoqlik" eng yaqqol namoyon bo'ladi" [5]-degan bo'lsa, Z. I. Kalmikova aqliy rivojlanish subyektning intellektual faoliyatida namoyon bo'ladigan miqdoriy va sifat o'zgarishlarining murakkab dinamik tizimi [6] ekanligini ta'kidlagan. Bunga javoban N. S. Leytes "aynan rivojlanishning notekisligi, shaxsning rivojlanishi qisman kechikadi yoki tezlashadi, eng avvalo, aqliy ko'rinishdagi sifat o'zgarishlariga olib keladi" [5]-degan fikrlarni bildiradi. Shuningdek, V. N. Drujinin bir qator tadqiqotchilarning ma'lumotlarini tizimlashtirib, o'quv faoliyati uchun "IQning quyi "chegarasi" faqat intellekt faoliyatining tashqi talablari bilan belgilanadigan ma'lum darajadan yuqori bo'lgan maktab

o'quvchisi muvaffaqiyatli o'qishi mumkin" [7]. degan xulosaga keladi.

Bizningcha, maktab o'quvchilarning jismoniy va psixologik yetukligidagi tengsizliklar tufayli ularning ma'lumotni o'zlashtirish sur'ati, ta'lim jarayonining subyektiv murakkablik darajasida doimo farqlarning mavjudligini ta'kidlab, o'quvchilarning aqliy rivojlanishidagi yutuqlarga ta'sir qilmasdan qolmasligini bildiradi. Shu boisdan, sinflarda faoliyat yurituvchi o'qituvchilar bolalarning nafaqat yoshiga, balki individual xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Shu bilan birga, intellektual imkoniyatlarni sifat jihatidan o'zgartirishning zarur va majburiy sharti miqdoriy ko'rsatkichlarning o'sishi bilan bog'liq bo'lib, ularsiz aqliy rivojlanishning yangi darajasiga chiqish mumkin emas. Aynan, inson intellektining xususiyatlari qanday bo'lishidan qat'i nazar, muvaffaqiyatli ta'lim olayotgan iqtidorli o'quvchilar toifasiga ma'lum bir muvaffaqiyatlarga erishgan o'quvchilar kiradi. Aksincha, intellekt ko'rsatkichlari belgilangan meyorlardan past bo'lsa, ta'limda yuqori yutuqlarga erishish ehtimoli kam bo'ladi.

Bu bo'yicha fikrimiz quyidagilar bilan izohlanadi:

- o'quvchilarning miya tuzilmalari yetukligining erishilgan darajasiga tayanish;
- ta'limning intellektual darajani shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lish;
- bolalarning biologik rivojlanish sur'atlarining mos kelmaslik darajasini aniqlash usullarini izlash;
- psixik rivojlanishning turli bosqichlarida bo'lgan o'quvchilarning bir yosh guruhidagi nisbatini aniqlash.

Bular nafaqat ijtimoiy muhitning ta'siri bilan, balki individual genetik dasturni amalga oshirish bilan ham bog'liqligi tufayli ta'lim sifatini ta'minlashda dolzarb xarakterga ega hisoblanadi.

Aqliy qobiliyatlarning rivojlanish darajacining barqaror farqlarining namoyon bo'lishida, aqliy qobiliyatlarning yoshga doir shakllanishining individual-tipologik xususiyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Bunda o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatlari bo'yicha tengsizligini va psixologiyada ma'lum bo'lgan "intellektual rivojlanish inversiyasi" hodisasini tushuntirishi mumkin [8]. Shuning uchun ham iqtidorli bolalarda aqliy rivojlanishning yuqori va past sur'atlarining uzluksiz almashinuvi tasvirlanishda, bizning tadqiqotimiz davomida "oddiy" o'quvchilar orasida ham qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, intellektning yosh davrlariga oid rivojlanishining individual variantlarini aniqlash, bizningcha, maktab va oliy ta'limda o'zlashtirishning quyi muammosini hal qilish yo'llarini belgilash imkoniyatini kengaytiradi.

Barchaga ma'lum psixogenetikada intellekt darajasining genetik determinatsiyasi haqida ma'lumotlar mavjud va u yosh xususiyatlari bilan birgalikda rivojlanib boradi [9]. Buni qator olimlarining tadqiqotlarini tahlil qilish natijasida, umumiy qobiliyatlar maxsus qobiliyatlarga nisbatan ko'proq genetik jihatdan belgilangan degan xulosaga kelish mumkin. Sababi xorij olimlari tajribalarida, aqliy qobiliyatlarning verbal va nonverbal tarkibiy qismlarining nisbatini aniqlash asnosida intellekt dinamikasining o'sish jarayonidagi o'zgarishini ko'ramiz.

Umumta'lim maktabining o'rta sinflarida oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonining o'talarigacha bo'lgan davrda intellektning shakllanish sur'atlari qonuniyatlariga egaliklarini, ayniqsa, o'rta sinflarda intellektning miqdoriy ko'rsatkichlari, miqdoriy o'zgarishlarning sifat o'zgarishlari bilan almashtirilishi va uning kompetensiyaga ega bo'lish bilan bog'liq jixatlari hususida yozilgan YE.M. Revenkoning ilmiy ishida Metodologik qiyinchiliklar tufayli 5-6-sinf o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari va intellekt darajasi namoyon bo'lishining mutlaq qiymatlari ma'lumotlarini yuqori

sinf o'quvchilari bilan taqqoslashning iloji yo'q, chunki turli tanlovlarda baholash uchun turli xil metodikalaridan foydalanilgan. Biroq, biz o'sish sur'atlarini va boshqa bir qator ko'rsatkichlarni taqqoslashimiz mumkin [10]-degan fikrlarni ko'rishimiz mumkin.

Albatta bu yerda tanlanmalarining o'rtacha ko'rsatkichlari intellektning yosh dinamikasini tahlil qilishda o'quvchilarning aqliy rivojlanishda o'ziga xos individual xususiyatlari mavhum bo'lsada, ishga kirishishdan oldin umumiy yo'nalishni ilg'ash joiz bo'ladi. Bunda avvalo intellektning o'rtacha tendensiyaning o'sish darajasining qanday o'zgarishini tahlil qilish va intellekt dinamikasining individual-tipologik xususiyatlarini o'rganish ahamiyatli hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. O'qish va ulg'ayish jarayonida verbal va noverbal aqliy qobiliyatlarda intellektning umumiy darajasi, ko'rsatkichlarining miqdoriy o'sishi orqali sodir bo'ladi. Bunda respondentlarning yoshi qanchalik kichkina bo'lsa, yil davomida ularida intellektning rivojlanish dinamikasi o'sishida jadallik kuzatiladi. Masalan, 5-sinf o'quvchilarida umumiy intellekt darajasi 70 ball bo'lsa, bir yildan so'ng 6-sinfda bu ko'rsatkich 82 ballga teng bo'lishi mumkin, ya'ni bir yil ichida ko'rsatkichlar orasidagi tafavvuf 12 ballga farqlanadi. Eng kam o'zgarishlar esa tushunish jarayonida topshiriqlarni bajarishda yuz berishi va matematik qobiliyatlari arifmetik masalalarni aks ettiruvchi 1 va 2-subtestlarda kuzatildi. Eng samarali siljishlar 3-6-subtestlar orqali taqqoslash va tahlil qilish qobiliyati diqqatni jamlash inteklektida aniqlandi.

Shuningdek, 7-8-sinflarda ham intellektning sezilarli yillik o'sishi 15 ball qayd etilgan. Agar 7-sinf o'quvchilarda uning tanlanma bo'yicha umumiy ko'rsatkichi 65 balldan, bir yil ichida 80 ballga ko'tarilishi mumkin. 8-9-sinflar orasidagi farqni esa aniq belgilash imkoniyatiga egamiz, sababi ushbu yosh davrida oldingi davrga nisbatan umumiy intellekt (yoki IQ) dinamikasining 9 ballga pasayish ehtimolligi ortadi. 9-10-sinflarda intellektning yillik dinamikasi 10 ballni tashkil etadi. 10-11-sinflarda intellektning o'sishi 12 ball bo'lib, yuqori

intensiv umumlashtirish manbalarda mantiqiy qonuniyatlarni o'rnatish qobiliyatlarida kuzatiladi.

Maktab ta'limidan oliy ta'limiga o'tishda IQ intellekt ko'rsatkichlari ko'ra, intellektual kompetensiya ya'ni subyektning intellektual resurslari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu resurslar kelajakda o'z sohasida haqiqiy yutuqlarga erishishni ta'minlaydi va shaxsning individual aqliy tajribasini boyitish hisobiga to'planadi. Bu esa o'qish va kelajakdagi kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini bashorat qilish imkonini beradi [8].

Demak bu yerda longityud tadqiqot usuli asosida 5-6-sinflar o'quvchilarida IQ darajasi yuqori bo'lgan o'g'il bolalarda intellektual rivojlanish jadalroq kechishini ko'rishimiz mumkin. Sababi bu darajaga nisbatan past bo'lganlarga uning ifodalanish dinamikasi o'ziga xos xususiyat hisoblanadi. YA'ni, o'smirlik davrida aqliy imkoniyatlarning jadal o'sishi turli vaqtlarda har xil, ayrimlarida biroq oldin, boshqalarida esa kechroq sodir bo'lishidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Yosh davrlariga mos intellektual qobiliyatlarning kech rivojlanish nisbati ayrim o'smirlarda o'z tengdoshlaridan o'zlashtirishdan orqada qolishini o'z xoliga tashlab qo'ymaslik, ular bilan maxsus psixologik suhbatlar, aqliy rivojlanishini ta'minlaydigan treninglar, psixologik metodlarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali intellekt dinamikasi faollashishi va tezlashishi va ular orasidagi farqni qisqartirish mumkin.

Inson aqliy imkoniyatlarning tez faollashuvi va miya funksiyalarining takomillashib borishi intellektual rivojlanishning miqdoriy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlarining pasayishiga emas balki yuqorilashiga, yorqin namoyon bo'lgan intellekt tafovutlari keyinchalik unchalik ko'zga tashlanishiga, yosh davrlariga mos iste'dod va qobiliyatlarning yo'qolib ketmasligiga zamin yaratish zarur. Sababi, ko'plab aniqlangan manbalar intellektning yoshga oid shakllanishining individual-tipologik xususiyatlarining mavjudligini tasdiqlaydi, ularni xronologik guruhga mansub o'quvchilarni aqliy rivojlantirish dinamikasining vaqti, tezligi va ritmi bo'yicha mos keltirishdan iborat.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Turkiyaning Anqara shahrida Turkiya Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xalq kutubxonasining ochilish marosimidagi nutqi. Anqara-2020-yil 20-fevral.
2. Выготский Л. С. Педагогическая психология / под ред. В. В. Давыдова. Москва: Педагогика, 1991. 479 с.
3. Локалова Н. П. Школьная успеваемость: причины, психокоррекция, психопрофилактика: учебное пособие. С.-Петербург: Питер, 2009. 368 с.
4. Зелова Т. Ф., Ревенко Е. М., Сальников В. А. Возрастные особенности соотношения двигательных и умственных способностей школьников // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. 2010. № 3. С. 11–16.
5. Лейтес Н. С. Возрастная одаренность и индивидуальные различия. Москва; Воронеж, 1997. 448 с.
6. Калмыкова З. И. Проблема преодоления неуспеваемости глазами психолога. Москва: Знание, 1982. 96 с.
7. Дружинин В. Н. Психология общих способностей. С.-Петербург: Питер, 2000. 368 с.
8. Холодная М. А. Эволюция интеллектуальной одаренности от детства к взрослости: эффект инверсии развития // Психологический журнал. 2011. № 5. С. 69–78.
9. Егорова М. С., Зырянова Н. М., Пьянкова С. Д. Возрастные изменения генотип-средовых отношений в показателях интеллекта // Вопросы психологии. 1993. № 2. С. 106–108.
10. Ревенко Е. М. Развитие интеллекта в процессе взросления // Образование и наука. 2014. № 6 (115) С-99-100.